

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

MAHMANOV ORIF QUDRATOVICH

OLIV MALAKALI ILMIY VA ILMIY-PEDAGOG KADRLAR
ATTESTATSIYASI JARAYONLARINI MONITORING QILISH
AXBOROT TIZIMINING MODEL VA ALGORITMLARI

05.01.10 – Axborot olish tizimlari va jarayonlari

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the abstract of Doctoral (DSc) dissertation

Mahmanov Orif Qudratovich

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlarini monitoring qilish axborot tizimining model va algoritmlari 3

Махманов Ориф Кудратович

Модели и алгоритмы информационной системы мониторинга процесса аттестации высококвалифицированных научных и научно-педагогических кадров 29

Makhmanov Orif Kudratovich

Models and algorithms of the information system for monitoring the attestation process of highly qualified scientific and scientific-pedagogical personnel 57

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

MAHMANOV ORIF QUDRATOVICH

OLIV MALAKALI ILMIY VA ILMIY-PEDAGOG KADRLAR
ATTESTATSIYASI JARAYONLARINI MONITORING QILISH
AXBOROT TIZIMINING MODEL VA ALGORITMLARI

05.01.10 – Axborot olish tizimlari va jarayonlari

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/T455 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.tuit.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Zaynidinov Xakimjon Nasiridinovich**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Igamberdiev Xusan Zakirovich**
texnika fanlari doktori, professor, akademik

Saidov Abdusobirjon Abduraxmonovich
texnika fanlari doktori, professor

Kalandarov Ilyos Ibodullayevich
texnika fanlari doktori

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat transport universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “31” mart da soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43; e-mail: iktuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (273 - raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “16” mart kuni tarqatildi.
(2023-yil “6” mart dagi 8 raqamli reestr bayonnomasi).



M.M.Musaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, texnika fanlari doktori, professor

N.O.Raximov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

U.R.Xamdamiyov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish sharoitida axborotni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va tizimlashtirish kabi jarayonlarni zamonaviy IT-texnologiyalar orqali amalga oshirilishi raqobatbardoshlik darajasini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng qo'llash orqali monitoring axborot tizimlarini ishlab chiqishga hamda ma'lumotlar bazasini shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Oliy ta'lim muassasalarining reytingini hisoblashda asosiy ko'rsatkich sifatida professor-o'qituvchining malakasi, tajribasi va ma'lum mutaxassislik bo'yicha dunyo ilm-fan sohasiga qo'shayotgan hissasi e'tiborga olib kelinmoqda"¹. Bu borada oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlarini monitoring qilish, ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, ishlov berish hamda informativ xususiyatga asoslangan jarayonlar bo'yicha maqsadli parametrlarning moslashuviga asoslangan axborot modellari, algoritmlari va avtomatlashtirilgan boshqaruvning funksional tuzilmalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta monitoring tizimlarini ishlab chiqish, xususan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlarini monitoring qilish sohasida zamonaviy texnologiyalar bo'yicha ilg'or bo'lgan AQSh, Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Polsha va Yaponiya kabi davlatlarning yetakchi olimlari olib borayotgan tadqiqotlari mahsuliga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda ilmiy salohiyatni baholash, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlarini monitoring qilish usullari, ma'lumotlarga ishlov berish va ma'lumotlarni intellektual tahlillash masalalarini yechish usul va algoritmlarini tadqiq qilish muhim va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan ushbu sohada, jumladan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi xususiyatlari asosida axborot oqimlarini informativ parametrlarga ko'ra taqsimlash, funksional jarayonlarini maqsadli boshqarish orqali raqamlashtirishda ma'lumotlarini shakllantirish, yig'ish va ishlov berishga yo'naltirilgan ma'lumotlar bazasining axborot modellarini yaratish, ilmiy faoliyat bo'yicha qaror qabul qilishga ko'maklashish va nazoratini tashkil etish dasturiy vositalar majmuini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan buyon oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashni rivojlantirish, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'limda ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga keng jalb etishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu borada, jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini ilm-fanning turli sohalariga tatbiq etish orqali ilmiy tadqiqot ishlarini

¹ https://www.researchgate.net/publication/283986451_Ocenka_effektivnosti_prepodavatelya_v_sovremennom_obrazovatelnom_ucrezdenii

ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish borasida sezilarli natijalarga erishildi. Shu bilan birga oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlarini raqamlashtirishda monitoring qilishning axborot modellari, foydalanuvchi interfeyslarini dinamik shakllantirish model va algoritmlari, elektron hukumatning kompleks axborot tizimlari o'rtasida ma'lumot almashishning ko'p bosqichli integratsiya model va algoritmlari ishlab chiqishda maqsadli ilmiy tadqiqotlar zarur. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida, jumladan "...ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish..." vazifalari belgilangan. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...elektron hukumat tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini oshirish..." vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi monitoringining funksional IDEF-modellari hamda biznes-jarayonlari modellari, ma'lumotlar bazasini loyihalashtirish modellari, ma'lumotlar bazasida informativ maydonlarni dinamik shakllantirish asosida foydalanuvchi interfeyslarini qurish model va algoritmlari, attestatsiya jarayonlari bo'yicha axborot tizimlarida keshadigan jarayonlar ishlash algoritmlari, axborot tizimlaridagi ma'lumotlar almashishning ko'p bosqichli integratsiyasi modellarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli qarori, 2020-yilning 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-6079-sonli Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish"ning ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Dunyoda fan, ta'lim va ishlab chiqarish sohalarida zamonaviy IT-texnologiyalardan foydalanishning rivojlanish tendensiyasi axborot tizimlarini ishlab chiqishni loyihalashtirishda samarali modellardan foydalanish bilan bog'liqdir. Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi yirik ilmiy-innovatsion markazlar va oliy ta'lim muassasalarida jumladan, Harvard University, Massachusetts Institute of Technology (AQSh), University of Cambridge, University of Oxford (Buyuk

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar: <http://www.ds.mpg.de/en>, <http://www.ox.ac.uk/>, <http://www.bioe.neu.edu>, <http://www.zbit.uni-tuebingen.de/>, <https://p.lodz.pl/en/research/research-projects>, <https://hpi.de/>, <https://www.univ-lorraine.fr> <http://neel.cnrs.fr/?lang=fr>, <https://en.itmo.ru/>, <https://www.cbcb.umd.edu/>, https://mipt.ru/science/labs/laboratory_of_the_biophysics_of_excitable_systems/

Britaniya), Lodz University of Technology (Politechnika Łódzka, Polsha), Kyoto University (Yaponiya), University of Lorraine (Université de Lorraine, Fransiya), ITMO universiteti (Rossiya Federatsiyasi), V.M.Glushkov nomidagi Milliy fanlar akademiyasi kibernetika instituti (Ukraina), Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tadqiqotlar jarayonida bir qator natijalar olingan: ma‘lumotlarni to‘plash, ishlov berish va taqsimlash algoritmlari asosida boshqaruv jarayonlarini modernizatsiyalash bo‘yicha avtomatlashtirilgan axborot tizimlari ishlab chiqilgan (Lodz University of Technology, Polsha); axborot tizimlarini tezkor boshqarish va rejalashtirish masalalarini yechish model va usullari qurilgan (Ukrainaning V.M.Glushkov nomidagi milliy fanlar akademiyasi Kibernetika instituti); axborotni qayta ishlash, to‘plashning usul va algoritmlari asosida axborot tizimlari yaratilgan (Rossiya Federatsiyasi, ITMO universiteti).

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Insoniyat hayotida ilmiy salohiyat masalalarini tadqiq qilishda fan, texnika va yuqori texnologiyalarning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Ilmiy salohiyatni baholash masalalari bo‘yicha L.S.Blyaxman, Ye.G.Vasilevskiy, V.A.Jamin, A.N.Avdulov, A.M.Kulkin, ilmiy salohiyat ko‘rsatkichlari va uni bashoratlash masalalari bo‘yicha A.S.Sazonova, A.O.Ladniy, S.S.Doneskaya, B.I.Bedniy, A.R.Abdullin, Y.Y.Starovoytovalar ilmiy kadrlar attestatsiyasi jarayonlarini modellashtirish masalalari bo‘yicha esa I.I.Perederyaev, Yu.T.Sharabchiev, S.I.Pakhomov, O.V.Kulyamin, V.A.Gurtov va boshqa bir qator olimlarning ishlarida ko‘rib chiqilgan.

O‘zbekistonda axborot tizimlarini boshqarish va ma‘lumotlarga intellektual ishlov berish masalalari bo‘yicha M.M.Kamilov, M.M.Musaev, X.N.Zaynidinov, U.R.Xamdov va boshqa olimlar o‘zlarining hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. T.F.Bekmuratov, M.A.Raxmatullaev, A.X.Nishanov, B.B.Mo‘minov, O.J.Bobomurodov, N.O.Raximovlar korporativ axborot tizimlarida intellektual tahlillash usullari asosida ma‘lumotlarga ishlov berish, bilimlar bazasini shakllantirish masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqdalar. Shuningdek D.T.Muxamadiyeva, A.A.Saidov, J.B.Sultanov, I.I.Kalandarov, B.B.Elov, J.B.Elovlar axborot tizimlari va jarayonlarini modellashtirish masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi monitoringi jarayonlarini raqamlashtirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, ta‘limning muhim bosqichlaridan bo‘lgan oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim faoliyatida zamonaviy IT-texnologiyalardan samarali foydalanish, ya‘ni ularning attestatsiya jarayonini monitoring qilishda ma‘lumotlarga ishlov berish orqali ilmiy salohiyatdan maqsadli va samarali foydalanish, attestatsiya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish katta samara beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi-ning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Oliy attestatsiya komissiyasi hamda “OAK axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish markazi” DUKning

ilmiy tadqiqot ishlari rejasining quyidagi loyihalari doirasida bajarilgan: YoA-5-004 “Oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy salohiyati monitoring axborot tizimini takomillashtirish usul va vositalarini ishlab chiqish” (2016-2017), 08/19F – “Ilmiy unvonlar berish bo‘yicha attestatsiya ishlarini va ilmiy darajalarda tasdiqlash bo‘yicha attestatsiya ishlarini amalga oshirishning elektron axborot tizimini ishlab chiqish” (2019).

Tadqiqotning maqsadi oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar attestatsiyasi monitoringi biznes-jarayonlarini modellashtirish, ma’lumotlar tuzilmalarini loyihalashtirish, axborotlarga ishlov berish algoritmlari va axborot tizimlari majmuini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlarining funksional IDEF0, IDEF3 modellari va ulardan foydalanish senariylari, biznes-jarayonlarining BPMN modellari hamda obyektga yo‘naltirilgan UML modellarini ishlab chiqish;

oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlari bo‘yicha ma’lumotlarni taqdim etishning konseptual, mantiqiy va jismoniy modellari hamda ma’lumotlar bazasida informativ maydonlarni dinamik o‘zgarishga ko‘ra shakllantirish orqali foydalanuvchi interfeyslarini tashkil etish model va algoritmini ishlab chiqish;

ilmiy daraja va ilmiy unvonlar bo‘yicha attestatsiya jarayonlarini monitoring qilish, ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, ishlov berish hamda attestatsiya jarayoni bo‘yicha maqsadli parametrlarning moslashuviga asoslangan axborot modellari va avtomatlashtirilgan boshqaruvning funksional tuzilmalarini ishlab chiqish;

oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlari bo‘yicha ma’lumotlar kompleksini unifikatsiyalash, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiluvchi veb-servisning axborot modellarini ishlab chiqish;

ilmiy daraja va ilmiy unvonlarda tasdiqlanganlar to‘g‘risidagi informativ xususiyatga ega ma’lumotlarni elektron hukumat tizimi doirasidagi hamda idoraviy axborot tizimlari bilan bog‘lanishi va ma’lumot almashishini ta’minlovchi ko‘p bosqichli integratsiya model va algoritmlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlari qaralgan.

Tadqiqotning predmeti oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlarini monitoringini yuritish uchun xizmat qiladigan usullar, modellar va algoritmlar asosida ishlab chiqilgan axborot tizimlari majmui hamda ko‘p bosqichli integratsiya modellari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tizimli tahlil, ma’lumotlarni tahlillash usullari, axborot va matematik modellashtirish, to‘plamlar nazariyasi, ma’lumotlarga ishlov berish usullari, matematik statistika, obyektga yo‘naltirilgan dasturlash usullari, obyektga yo‘naltirilgan loyihalashtirish modellari, dasturiy ta’minotlarni loyihalash usullari, ma’lumotlar bazasini loyihalash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi xususiyatlari asosida axborot oqimlarini informativ parametrlariga ko‘ra taqsimlash hamda funksional

jarayonlarini maqsadli boshqarishga qaratilgan axborot tizimlarining funksional-mantiqiy modellari, foydalanish senariyalari va arxitekturasi ishlab chiqilgan;

oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlarini raqamlashtirishda ma'lumotlarni taqdim etishning konseptual, mantiqiy va jismoniy modellari hamda ma'lumotlar bazasidagi informativ maydonlarni dinamik o'zgarishiga ko'ra foydalanuvchi interfeyslarini tashkil etish model va algoritmi ishlab chiqilgan;

ilmiy daraja va ilmiy unvonlar bo'yicha attestatsiya jarayonlarini monitoring qilish, ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, ishlov berish hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi bo'yicha maqsadli parametrlarning moslashuviga asoslangan axborot modellari ishlab chiqilgan;

oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlari bo'yicha ma'lumotlar majmuini unifikatsiyalash, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiluvchi veb-servisning axborot modellari hamda yagona axborot tizimi ishlab chiqilgan;

oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar to'g'risidagi informativ ma'lumotlarni elektron hukumat doirasidagi idoraviy axborot tizimlari bilan bog'lanishi hamda ma'lumot almashishini ta'minlovchi ko'p bosqichli integratsiyalash model va algoritmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqilgan funksional jarayonlarning axborot IDEF0 va IDEF3 modellari, biznes-jarayonlarning BPMN va obyektga yo'naltirilgan UML modellari, ma'lumotlar bazasining IDEF1X va relyatsion modellari, attestatsiya jarayoni bo'yicha informativ maydonlarni dinamik o'zgarishiga ko'ra shakllantirish yordamida foydalanuvchi interfeyslarini tashkil etishning model va algoritmlari hamda axborotlarga ishlov berish algoritmlari asosida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlari monitoringini yuritishga mo'ljallangan "Ilmiy darajalar kompleks-tahliliy axborot tizimi", "Ilmiy unvonlar kompleks-tahliliy axborot tizimi", "Korporativ elektron hujjatlar aylanish kompleks-tahliliy axborot tizimi", "Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar portali" va "Dissertatsiyalarning jamoaviy elektron ekspertizasi axborot tizim"larni o'z ichiga olgan axborot tizimlari majmui ishlab chiqilgan.

Ilmiy daraja va ilmiy unvon to'g'risidagi informativ xususiyatga ega ma'lumotlarni elektron hukumat doirasidagi idoraviy axborot tizimlari bilan bog'lanishi hamda ma'lumot almashishini ta'minlovchi ko'p bosqichli integratsiya jarayonlarining UML modellari hamda axborotlarga ishlov berish algoritmlari asosida axborot tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy daraja va ilmiy unvon attestatsiya jarayonlari monitoringini tashkil etishda yaratilgan model va algoritmlarning testlash natijalari, tadqiqot ishi doirasida respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlarning olingan natijalari va ularning o'zaro muvofiqlashtirilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan modellar, algoritmlar va funksional tuzilmalar oliy

malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi monitoringida IDEF modellashtirish, BPMN modellashtirish, obyektga yo'naltirilgan UML modellashtirish, ma'lumotlar bazasida relyatsion modellashtirish va axborot tizimini loyihalash usullarini taklif etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi monitoringi jarayonlariga IT-texnologiyalarini joriy etish, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ilmiy salohiyat ko'rsatkichlaridan maqsadli va samarali foydalanish, attestatsiya organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi monitoringini tashkil etish bo'yicha ishlab chiqilgan modellar, algoritmlar va axborot tizimlari majmualari asosida:

oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi xususiyatlari asosida axborot oqimlarini informativ parametrlariga ko'ra taqsimlash hamda funksional jarayonlarini maqsadli boshqarishga qaratilgan monitoring qilish axborot tizimlarining funksional-mantiqiy modellari va avtomatlashtirilgan boshqaruvning funksional tuzilmalari asosida "Ilmiy darajalar kompleks-tahliliy axborot tizimi" joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2022-yil 7-dekabrda 01-01/2777/1 son ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiya himoyasi haqidagi ma'lumotlarni OAK veb-saytida e'lon qilish hamda dissertatsiya himoyasidan keyingi attestatsiya ishlarini ro'yxatga olish vaqti sezilarli darajaga qisqartirilib, hujjatlarni viloyatlarda joylashgan oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlardan olib kelish xizmat safari bilan bog'liq harajatlar shartli ravishda 261 mln. so'mga iqtisod qilingan va ushbu jarayonda "subyekt-subyekt" jonli uchrashuviga barham berilgan;

oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlarini raqamlashtirishda ma'lumotlarni taqdim etishining konseptual, mantiqiy va jismoniy modellari hamda ma'lumotlar bazasidagi informativ maydonlarni dinamik o'zgarishiga ko'ra foydalanuvchi interfeyslarini tashkil etish modeli va algoritmlari asosida "Ilmiy unvonlar kompleks-tahliliy axborot tizimi" joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2022-yil 7-dekabrda 01-01/2777/1 son ma'lumotnomasi). Axborot tizimining amaliyotga joriy qilinishi natijasida ilmiy unvonlar bo'yicha attestatsiya ishlarini ro'yxatga olish vaqti sezilarli darajaga qisqartirilgan, qog'oz sarfi o'rta hisobda 1,5 tonnaga tejalgan va hujjatlarni viloyatlardan olib kelish uchun xizmat safari bilan bog'liq harajatlar shartli ravishda 171 mln. so'mga iqtisod qilingan;

oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlari bo'yicha ma'lumotlar majmuini unifikatsiyalash, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiluvchi veb-servisning axborot modellari asosida "Korporativ elektron xujjatlar aylanish kompleks-tahliliy axborot tizimi" joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 21-fevraldagi 33-8/1142 son ma'lumotnomasi). Natijada axborot tizimi orqali 2021–2022-yillar davomida oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar, ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar va OAK o'rtasidagi barcha yozishmalar korporativ axborot tizimi orqali amalga oshirilgan. Mazkur axborot tizimining joriy qilinishi natijasida hujjat jo'natish/qabul

qilishga ketadigan vaqt sezilarli darajaga qisqartirilgan, viloyatlardan hujjatlarni olib kelish sarf-harajatlarni to'liq qisqartirilgan, jarayonda "subyekt-subyekt" jonli uchrashuviga barham berilgan;

oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar to'g'risidagi informativ ma'lumotlarni elektron hukumat doirasidagi idoraviy axborot tizimlari bilan bog'lanishi hamda ma'lumot almashishini ta'minlovchi ko'p bosqichli integratsiya model va algoritmlari asosida "Elektron hukumat identifikatsiyalash yagona tizimi", "Olim axborot tizimi", "Davlat fuqarolik xizmati yagona elektron axborot-tahliliy tizimi" va "Jismoniy shaxslar ma'lumotlar bazasi" bilan integratsiya amalga oshirilgan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 21-fevraldagi 33-8/1142 son ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy daraja va ilmiy unvon bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish jarayonlarini raqamlashtirish orqali qog'ozbozlikni kamaytirish hamda sohada shaffoflikni ta'minlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 13 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 33 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, 2 tasi xorijiy, 10 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan respublika jurnallarida nashr etilgan hamda 5 ta dasturiy vositalarga O'zbekiston Respublikasi Intelektual mulk agentligining guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriylik darajasi asoslab berilgan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishiga mosligi belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko'rsatib o'tilgan, olingan natijalarning haqqoniyligi asoslab berilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etilishi ro'yxati, ishni sinov natijalari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilmasi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlarini monitoring qilish tizimining nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobi beshta paragrafdan iboratdir. Birinchi paragrafda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish jarayonlarining qiyosiy tahlili keltirilgan. Ikkinchi paragrafda axborot tizimlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar, attestatsiya jarayonlari bo'yicha modellarni ishlab chiqish asoslari tahlil qilingan. Uchinchi paragrafda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlarini raqamlashtirishda ma'lumotlar bazasini loyihalashtirish usullari bo'yicha nazariy ma'lumotlar keltirilgan. To'rtinchi

paragrafda attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha tizimlarni ishlab chiqishda axborot oqimlarini tahlil qilingan. Beshinchi paragrafda oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimida davlat attestatsiyasi faoliyatini raqamlashtirish va monitoring qilish axborot tizimini ishlab chiqish masalasining qo'yilishi hamda birinchi bob bo'yicha xulosalar keltirilgan.


Axborot tizimlarini ishlab chiqishda predmet soha bo'yicha obyektning tadqiq qilish ishlari olib boriladi, sohani raqamlashtirish bo'yicha talablar o'rganiladi hamda zurrur hujjatlar tayyorlanadi va axborot tizimini yaratish ishlari boshlanadi. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi bo'yicha axborot tizimlarini ishlab chiqishda faoliyat o'rganildi, tahlil qilindi, raqamlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilib loyihalashtirish ishlari olib borildi. 1-rasmda O'zDSt 1986:2018 standartiga muvofiq ilmiy daraja va ilmiy unvonlar attestatsiyasi jarayonlarining axborot tizimlari majmuini ishlab chiqishda kechadigan jarayonlar bo'yicha BPMN modeli tasvirlangan.



1-rasm. Axborot tizimlarini ishlab chiqish jarayonlarining BPMN modeli


Ushbu bob oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlarini raqamlashtirish maqsadida ilmiy daraja va ilmiy unvonlar berish jarayonlarini monitoring qilish model, algoritmlari va axborot tizimlari majmuini ishlab chiqish bo'yicha asosiy vazifalar ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning “**Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlarini raqamlashtirishning funksional va biznes-jarayonlarini modellashtirish**” deb nomlangan ikkinchi bobida ilmiy daraja va ilmiy unvonlarga oid attestatsiya jarayonlarining funksional IDEF0 modellari, BPMN va UML modellarini ishlab chiqish bayon qilingan. Attestatsiya jarayonlarini raqamlashtirishga yo‘naltirilgan quyidagi 2-rasmdagi axborot tizimlarini ishlab chiqish yuzasidan funksional va biznes-jarayonlarning modellari loyihalashtirildi va ishlab chiqildi.



2-rasm. Attestatsiya jarayoni bo‘yicha axborot tizimlari


“Ilmiy darajalar kompleks-tahliliy axborot tizimi” quyidagi ikkita asosiy tashkil etuvchi moduldan iborat: “Talabgorlarning dissertatsiya himoyasi to‘g‘risida veb-saytda e‘lon qilish” moduli, “Dissertatsiyaning himoyadan keyingi hujjatlarni taqdim qilish” moduli. “Talabgorlarning dissertatsiya himoyasi to‘g‘risida veb-saytda e‘lon qilish” modulining IDEF0 modeli 3-rasmda ko‘rsatilgan.



3-rasm. Dissertatsiya himoyasini e‘lon qilish jarayonining IDEF0 modeli

“Talabgorlarning dissertatsiya himoyasi to‘g‘risida veb-saytda e‘lon qilish” moduli orqali ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashning ilmiy kotibi tomonidan dissertatsiyani himoyaga qabul qilish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan


boshlab nizomda belgilangan ma'lum muddat ichida dissertatsiya himoyasi to'g'risida veb-saytda e'lon berish uchun mazkur modul orqali hujjatlar taqdim etiladi. "Dissertatsiyaning himoyadan keyingi hujjatlarni taqdim qilish" modulidan esa dissertatsiya himoyasi to'g'risida ilmiy kengash tomonidan ijobiy qaror qabul qilinganda, nizomda belgilangan ma'lum muddat ichida tegishli hujjatlardan iborat bo'lgan attestatsiya ishi ushbu modul orqali taqdim qilinadi. 4-rasmda dissertatsiya himoyasidan keyingi attestatsiya ishi bo'yicha kechadigan jarayonlarni tashkil etishning BPMN modeli ishlab chiqilgan.



4-rasm. Dissertatsiya himoyasidan keyingi attestatsiya ishi bo'yicha kechadigan jarayonlarni tashkil etishning BPMN modeli

Mazkur BPMN model asosida dissertatsiya himoyasidan keyingi attestatsiya ishini taqdim etish, ko‘rib chiqish jarayonlari tashkil etiladi. Ushbu modelga ko‘ra jarayon besh bosqichda amalga oshiriladi: 1) himoya haqidagi e‘lon ma‘lumotlarini taqdim qilish; 2) ishni qabul qilish, me‘yoriy-texnik ekspertizadan o‘tkazish; 3) tartib-qoida komissiyasidan o‘tkazish; 4) ekspert kengashida ko‘rib chiqish, tartib-qoida komissiyasida ko‘rib chiqish, rayosatga tayyorlash; 5) ilmiy darajalarda tasdiqlash.


“Ilmiy unvonlar kompleks-tahliliy axborot tizimi” orqali ilmiy unvonlarda (professor, dotsent, katta ilmiy xodim) tasdiqlash jarayonida kechadigan jarayonlarni tashkil etishning obyektga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ishlab chiqilgan UML modeli 5-rasmda keltirilgan. Mazkur model orqali ilmiy unvon bo‘yicha attestatsiya ishini taqdim etish, ko‘rib chiqish jarayonlari tashkil etiladi. Ushbu modelda ilmiy unvon attestatsiyasi bo‘yicha jarayonlararo munosabatlar bayon qilingan. Bunda ilmiy unvon ma‘lumotlarini taqdim qilish; ilmiy unvon bo‘yicha attestatsiya ishini qabul qilish, me‘yoriy-texnik ekspertizadan o‘tkazish; ilmiy unvon bo‘yicha attestatsiya ishini tartib-qoida komissiyasidan o‘tkazish; ekspert kengashida ko‘rib chiqish; ilmiy unvonlarda tasdiqlash kabi jarayonlardagi harakatlar ketma-ketligi modellashtirilgan.



5-rasm. Ilmiy unvonlarda tasdiqlash jarayonida kechadigan jarayonlarni tashkil etishning UML modeli

“Korporativ kompleks-tahliliy elektron hujjatlar aylanish axborot tizimi” orqali ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar, ta‘lim va ilmiy tashkilotlar o‘rtasidagi hujjat almashish jarayoni elektron rejimda amalga oshiriladi. Mazkur axborot tizimi quyidagi asosiy tashkil etuvchi modullardan iborat: “Xatni yaratish” moduli, “Xatni qabul qilish” moduli, “Mas‘ul xodimni biriktirish” moduli, “Javob xatini yuborishga tayyorlash, tasdiqlash” moduli, “Xatning ijrosini tegishli joyga yuborish” moduli.

“Korporativ kompleks-tahliliy elektron hujjatlar aylanish axborot tizimi”da hujjatlar bilan ishlash jarayonining ishlashning IDEF0 modeli 6-rasmda ko‘rsatilgan.



6-rasm. Korporativ elektron hujjat aylanish tizimida kechadigan jarayonlarning IDEF0 modeli

Dissertatsiyaning “**Ilmiy daraja va ilmiy unvon attestatsiya jarayonlarini monitoring qilish axborot tizimlarining ma’lumotlar tuzilmasini loyihalashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobi uchta paragrafdan iborat. Unda ilmiy daraja va ilmiy unvon attestatsiya jarayonlari bo’yicha predmet soha xususiyatlari asosida ma’lumotlar bazasining konseptual modelini loyihalashtirish amalga oshirildi. Ilmiy daraja va ilmiy unvon attestatsiya jarayonlari bo’yicha ma’lumotlar bazasini mantiqiy loyihalash bo’yicha IDEF1X modellari ishlab chiqildi hamda ma’lumotlar bazasining fizik loyihalashtirish bosqichida umumiy 60 ta munosabat (jadval)dan iborat bo’lgan relyatsion modellari ishlab chiqildi. Shuningdek, ma’lumotlar bazasidagi informativ maydonlarni dinamik o’zgarishiga ko’ra foydalanuvchi interfeyslarini tashkil etish bo’yicha relyatsion modellashtirish amalga oshirildi.

7-rasmda ma’lumotlar bazasida dissertatsiya himoyasidan keyingi hujjatlarini taqdim qilish, ko’rib chiqish jarayoni bo’yicha ma’lumotlarning mantiqiy modelini loyihalashtirishni IDEF1X modeli keltirilgan. 8-rasmda ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar bo’yicha ma’lumotlarning relyatsion modeli keltirilgan. Ushbu model o’zaro bog’langan quyidagi jadvallardan iborat: *e_scientific_council* (ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar jadvali), *e_science_field* (fan tarmoqlari jadvali), *e_specialty* (oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklar ro’yxati jadvali), *e_organization* (tashkilot ma’lumotlari jadvali), *e_council_members* (ilmiy kengash a’zolari jadvali), *e_council_attendance* (ilmiy kengash a’zolarining dissertatsiya himoyasida qatnashish holati jadvali), *e_council_members_activity* (ilmiy kengash a’zolarining rasmiy opponetlik holati jadvali), *e_council_questions* (ilmiy kengash a’zolarining dissertatsiya himoyasida bergan savollari jadvali), *h_degree_type* (ilmiy daraja turi jadvali), *h_rank_type* (ilmiy unvon turi jadvali).

$U = \{u_m | m = \overline{1, nU}\}$, attestatsiya ishi bilan ishlaydigan tizim foydalanuvchilari to‘plami (*User*),
 $O = \{o_p | p = \overline{1, nO}\}$, attestatsiya ishi hujjati bo‘yicha bajariladigan amallar to‘plami (*Operation*)

Str - attestatsiya ishining tizimdagi harakati tuzilmasi bo‘lib, unda *U* foydalanuvchilar to‘plami tomonidan bajariladigan *O* amallar natijasida o‘z holatini o‘zgartiradigan *D* hujjatning *P* obyektlari to‘plamining kortejli modeli hisoblanib, quyidagicha ifodalanadi:

$$Str = (P, D, U, O, Env, Time) \quad (2)$$

nP – hujjat parametrlari soni, nD – hujjatlar soni, nU – foydalanuvchilar soni, nO – bajariladigan amallar soni, *Env* – obyektga tashqi va ichki tomondan ta’sir qiluvchilar to‘plami, *Time* – hujjat ustida amallarni bajarishga ketadigan diskret vaqtlar to‘plami.

p_k ning har bir hujjat parametri S_k holatlar to‘plamiga mos keladi, ya’ni hujjat parametri hayot siklining ma’lum bir davrdagi qiymati va atributini belgilaydi:

$$p_k \rightarrow S_k \quad (3)$$

bu yerda, $S_k = \{s_{kj} | j = \overline{1, nS_k}\}$ - p_k attestatsiya ishi hujjati parametri obyektlarining to‘plami, nS_k - holatlar to‘plamining soni.

Tizimda hujjat parametrlari oid ma’lumotlarga ishlov berish bo‘yicha ma’lum amalni bajarish uchun p_k hujjatning s_{kj} holatini belgilashni $p_k(s_{ki})$ ifoda orqali ifodalaymiz:

$$s_{ki} = \left(\left\{ (atr_{kn}, val_{kin}) | atr_{kn} \in Atr_k, val_{kin} \in Val_{ki}, n \in \overline{1, N_k} \right\}, T_{s_{kj}} \right) \quad (4)$$

bu yerda, $Atr_k = \{atr_{kn} | n = \overline{1, nAtr_k}\}$ - har bir s_{ki} holati uchun mos keladigan atribut qiymatlari $Val_k = \{val_{ki} | i = \overline{1, nS_k}\}$ to‘plamiga ega p_k hujjat parametrlarining atributlari to‘plami,

$$Val_{ki} = \{val_{kin} | i = \overline{1, nVal_{ki}}\}, \quad (5)$$

$nAtr_k$ - obyekt atributlari soni, $T_{s_{kj}} = \{t_d\}$ - s_{ki} mavjud bo‘lgan vaqtlar to‘plami.

Ushbular asosida foydalanuvchi interfeysi orqali hujjatning holatini o‘zgartirish amallarini ko‘rib chiqamiz. Dastlab amallar (*Operation*) umumiy ko‘rinishini quyidagicha ifodalaymiz:

$$o_g: (P_{input}, D_{input}, U_{input}, t_r, env_e) \rightarrow (P_{output}, D_{output}, U_{output}, t_g + \Delta t_g)$$

bu yerda:

$$P_{input} = \{p_k | p_k \in P\}, P_{output} = \{p_k | p_k \in P^*\}, \quad (6)$$

$$D_{input} = \{d_l | d_l \in D\}, D_{output} = \{d_l | d_l \in D^*\},$$

$$U_{input} = \{u_m | u_m \in U^*\}, U_{output} = \{u_m | u_m \in U^*\},$$

$$\Delta t_g \leq t_g^*, t_g^* \in T^*, env_w = (P^*, D^*, U^*, O^*, T^*)$$

P_{input}, P_{output} – mos ravishda kiruvchi va chiquvchi hujjat parametrlari to‘plami, D_{input}, D_{output} – mos ravishda kiruvchi va chiquvchi attestatsiya ishi hujjatlari to‘plami, U_{input}, U_{output} – mos ravishda yuboruvchi (amallarni bajaruvchi) va qabul qiluvchi (ijrochi) foydalanuvchilar to‘plami, $t_g, \Delta t_g, t_g^*$ – amalni bajarishning boshlang‘ich vaqti, amalni bajarish umumiy vaqti, amalni tugatish maksimal vaqti, env_e – amalni bajarishga ichki yoki tashqi ta’sir qiluvchi.

o_{read}^1 ma'lumotlarni o'qish amali bo'lib, u_m foydalanuvchi tomonidan d_l obyektning s_{li} holatidagi hujjat ma'lumotlarni qandaydir $tmpl$ buferga hamda ushbu hujjat p_k obyektining $s_{l_{ki}}$ holatidagi parametrlarini qandaydir $tmpk$ buferga o'qish jarayonini tavsiflovchi funksiya hisoblanadi:

$$o_{read}^1: (p_k(s_{l_{ki}}), d_l(s_{li}), u_m, t_r, env_e) \rightarrow (tmpk, tmpl, u_m, t_g + \Delta t_g),$$

bu yerda:

$$tmpk = \{(atr_{l_{kt}}, val_{l_{kin}})\}, \{(atr_{l_{kt}}, val_{l_{kin}})\} \in s_{l_{ki}}, \quad (7)$$

$$tmpl = \{(atr_{lt}, val_{lin})\}, \{(atr_{lt}, val_{lin})\} \in s_{li},$$

$$p_k \in P^*, d_l \in D^*, u_m \in U^*, \Delta t_g \leq t_g^*, t_g^* \in T^*, env_e = (P^*, D^*, U^*, O^*, T^*)$$

Ushbu model tizim foydalanuvchilarida ma'lumotlarni o'qish uchun ruxsat huquqlari bo'lsa bajariladi:

$$F(p_k, d_l, u_m, \langle read \rangle) =$$

$$\{AccessList(tmpk, tmpl, u_m), AccessList(p_k, d_l, u_m, o_{read}^1) \geq AccessList_0(o_{read}^1) \quad (8)$$

$$\{AccessVal(tmpk, tmpl, u_m), AccessVal(p_k, d_l, \langle read \rangle) = true$$

bu yerda, $AccessList()$ – foydalanuvchining ma'lumotlarni o'qish uchun obyektga kirish darajasini belgilovchi foydalanish huquqini boshqaruvchi rolli modeldagi funksiya hisoblanadi, $AccessList_0$ – o'qish amalini bajarish uchun zarur kirish darajasi, $AccessVal()$ - ma'lumot obyektining $\langle read \rangle$ atributini true yoki false ekanlini aniqlaydigan funksiya.

Ushbular asosida axborot tizimlari ma'lumotlar bazasida tegishli amallarni bajarish (o'zgartirish, kiritish, o'chirish) amalga oshirilgan.

P attestatsiya ishlari turlarining parametrlari quyidagicha shakllantirildi: himoya haqidagi e'lon ma'lumotlariga oid bo'lgan 6 ta hujjat uchun - 20 ta parametr; himoyadan keyingi attestatsiya ishi bo'yicha 10 ta hujjat uchun - 36 ta parametr; ilmiy unvon ma'lumotlariga oid bo'lgan 18 ta hujjat uchun - 63 ta parametr shakllantirildi. Ushbu hujjat parametrlari asosida ma'lumotlar bazasida attestatsiya ishi bo'yicha ma'lumotlar to'planib, attestatsiyadan o'tkazilishi tashkil qilindi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Attestatsiya ishi hujjatlarining parametrlarining ko'rsatkichlari

Ish turi	Talab qilinadigan hujjat va uning parametrlari		Jami attestatsiya ishi	Kiritilgan hujjat va uning parametrlari	
	Hujjat soni	Parametr soni		Hujjat soni	Parametr soni
Himoya e'loni	6	20	11 002	88 015	1 760 300
Himoyadan keyingi attestatsiya ishi	10	36	5501	23 1042	7 525 368
Ilmiy unvon	18	63	3653	131 508	8 285 004
Jami	34	119	20156	450565	17 570 672

1-jadvaldan ko'rish mumkinki, axborot tizimlari majmui orqali kirib kelgan eng ko'p hujjat soni "*Himoyadan keyingi attestatsiya ishi*" (51%) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Mazkur ko'rsatkich parametrlar soni bo'yicha "*Ilmiy unvon*" (47%) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi bo'yicha informativ maydonlarni dinamik ravishda shakllantirish orqali foydalanuvchi interfeysini qurish uchun instrument yaratish masalasi yechilgan.

Foydalanuvchi interfeyslarini tashkil etishda forma elementlari atributlarini ifodalashda FE_u , ($u = \overline{1,6}$) to'plam elementlaridan foydalaniladi. FE_u quyidagi qiymatlarni qabul qiladi:

$$FE_u = \{“son”, “matn”, “katta matn”, “fayl”, “variant tanlash”, “sana”\} \quad (9)$$

Ushbu 9-ifoda asosida forma elementlari atribut xususiyatlarini tasniflash modeli 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Foydalanuvchi interfeyslarini dinamik shakllantirishda forma elementlarining atribut xususiyatlarini tasniflash modeli

Element nomi	Atribut xususiyatlari
FE ₁	<i>tag_max:integer;tag_min:integer;tag_default:integer;tag_order>0; tag_required=true</i>
FE ₂	<i>tag_max:integer;tag_default:string;tag_order>0;tag_required= true</i>
FE ₃	<i>tag_max:integer;tag_cols>0;tag_rows>0;tag_default:string;tag_order>0; tag_required=true</i>
FE ₄	<i>tag_default:string;tag_max>0;tag_order>0;tag_required=true</i>
FE ₅	<i>tag_default:string;tag_order>0;tag_required=true</i>
FE ₆	<i>tag_default:date;tag_order>0;tag_required=true</i>

Bu yerda *tag_max*, *tag_min*, *tag_order*, *tag_required*, *tag_cols*, *tag_rows*, *tag_default* forma kiritish elementlarining xususiyatlari hisoblanadi.

9-ifodada keltirilgan qoidaga muvofiq *tag_max* xususiyati har bir forma elementiga mos holda o'ziga xos xususiyatni ifodalaydi:


$$f(attr, FE_u) = \begin{cases} \max_value, \text{ agar } FE_1 \text{ bo'lsa} \\ symbol_count < 255, \text{ agar } FE_2 \text{ bo'lsa} \\ symbol_count, \text{ agar } FE_3 \text{ bo'lsa} \\ \max_upload_size, \text{ agar } FE_4 \text{ bo'lsa} \end{cases} \quad (10)$$

Dinamik foydalanuvchi interfeyslarini shakllantirishda xuddi shu tartibda har bir xususiyatning forma elementlarida o'z vazifasi belgilangan.


9-rasmda foydalanuvchi interfeysida informativ maydonlar xususiyatlarini shakllantirish algoritmi keltirilgan. Mazkur algoritmgga murojaat qilgan holda 9-ifodada keltirilgan forma elementlari uchun foydalanuvchi interfeyslarini qurish amalga oshiriladi.

10-rasmda attestatsiya ishi hujjati parametrlari to'plami asosida foydalanuvchi interfeyslarini shakllantirish algoritmi keltirilgan bo'lib, ushbu algoritmda har bir forma elementini qurish 9-rasmdagi algoritmgga murojaat qilgan holda amalga oshiriladi. Bu yerda k – hujjat parametrlari soni, P - attestatsiya ishi parametrlari, UI – dinamik shakllantirilgan foydalanuvchi interfeysi hisoblanadi.

11-rasmda foydalanuvchilar tomonidan kiritilgan hujjat ma'lumotlarini qoidalarga mosligini tekshirish algoritmi keltirilgan. Ushbu algoritmdagi FV – foydalanuvchilar tomonidan forma elementlariga kiritilgan qiymatlar to'plami, *validate()* - 1-jadvaldagi (forma elementlarining atribut xususiyatlarini tasniflash modeli) qoidalar orqali ma'lumotlar validatsiyasini amalga oshirish funksiyasi.




9-rasm. Foydalanuvchi interfeysi uchun forma elementlarini shakllantirish algoritmi




10-rasm. Attestatsiya ishi hujjati parametrlari to'plami asosida foydalanuvchi interfeyslarini shakllantirish algoritmi

12-rasmda foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlarning attestatsiya ishi hujjati elementlari to'plamini shakllantirish algoritmi asosida shakllantirilgan qoidalarga mosligini tekshirish va talablarga mos bo'lgan taqdirda hujjatlarni yuborish algoritmi keltirilgan.



11-rasm. Foydalanuvchilar tomonidan kiritilgan hujjat ma'lumotlarini qoidalarga mosligini tekshirish algoritmi




12-rasm. Kiritilgan hujjat ma'lumotlari tarkibining attestatsiya ishi bo'yicha shakllantirilgan qoidalarga mosligini tekshirish algoritmi

Ishlab chiqilgan mazkur model va algoritmlar asosida 1-jadvaldagi parametrlarga asosan, “Himoya haqidagi e’lon” bo’yicha 88 015 ta, “Himoyadan keyingi attestatsiya ishi” bo’yicha 231 042 ta, “Ilmiy unvon” bo’yicha 131 508 ta hujjatlarni kiritish uchun foydalanuvchi interfeyslari dinamik shakllantirib berilishi tashkil etilgan. Informativ maydonlarni dinamik ravishda shakllantirish orqali foydalanuvchi interfeysini qurish instrument orqali ma’lumotlar bazasida yangi ma’lumotlar strukturasi yaratish imkoniyatiga erishilgan.

Dissertatsiyaning “**Ilmiy daraja va ilmiy unvon attestatsiya jarayonlarini monitoring qilishda axborot tizimlarining tadbqiqi va ma’lumotlarni taqdim etish formatlari**” deb nomlangan beshinchi bobi uchta paragrafdan iborat. Unda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi axborot tizimining arxitekturasi, texnik va dasturiy ta’minoti yoritib berildi. Axborot tizimi veb serveri va ma’lumotlar bazasi serveriga qo’yiladigan texnik talablar ma’lumotlarga ishlov berishning klient-server arxitekturasi hamda boshqa dastur va dasturiy tizimlari bilan ma’lumot almashish imkoniyatlarini ta’minlovchi integratsiya modullari ishlab chiqilgan. Ilmiy daraja va ilmiy unvonlar to’g’risidagi ma’lumotlarning boshqa axborot tizimlari bilan ko’p funktsionalli, ko’p bosqichli integratsiyalash usuli orqali bog’lanishini tashkil etish model va algoritmlari ishlab chiqilgan. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi bo’yicha axborot tizimi vositasida tajribaviy hisoblashlarni o’tkazish ishlari amalga oshirilgan.

Ilmiy daraja va ilmiy unvonlar to’g’risidagi ma’lumotlarning elektron hukumat doirasidagi idoraviy axborot tizimlari bilan ko’p bosqichli integratsiya modeli 13-rasmda ifodalangan.



13-rasm. Ko’p bosqichli integratsiyaning umumiy ko’rinish modeli

